



TARBIYACHI PEDAGOGNING MTTDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA KOMPETENTLIGI MEZONLARI

Rasulxo'jaeva Madina Axmadjonovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi pedagogika fanlari
falsafa doktori*

madinarasulxojayeva7@gmail.com

Temirova Barno Kiyomxonovna qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi III bosqich talabasi*

Tayanch so'zlar: tarbiyachi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyalanuvchi, kompetensiya, qobiliyat, pedagog.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining mashg'ulotlar tashkil etish jarayonida pedagogik qobiliyat va kompetensiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Tarbiyachi - pedagogning kasbi murakkab va mas'uliyatli kasbdir. Shuni alohida qayd qilib o'tish zarurki, ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun, u bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganishi, o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu tarbiyachilarda pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikni ta'minlaydi. Pedagogik mahorat - pedagogik jarayonda tarkib topadi.


Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo'lga qo'yib, bo'lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogning shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon-e'tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odob-axloqi, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy



bilimdonligi va h.k.lar kiradi. Bular tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy xususiyatlarni o‘zida tarbiyalab borishga asos bo‘ladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan va pedagogik mahoratga berilgan ta’rif hamda tarbiyachining *professiogrammasi* xususiyatlari va pedagoglarga qo‘yiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy talablardan kelib chiqib pedagogika nazariyasi pedagogik mahoratni quyidagi asosiy komponent (tarkibiy qism)lardan iborat bo‘lishi lozimligini ifodalaydi¹.



Pedagogik ijod – pedagogning mahorat pillapoyalaridan ko‘tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo‘lni, bu yo‘ldagi qiyinchiliklardan qo‘rqmaslikni anglatadi.

O‘z navbatida bu sohada pedagogning **pedagogik qobiliyati** ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda pedagogning aqliy, emotsional-irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog‘liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

¹ М.А.Расулхўжаева ТАРБИЯЧИНИНГ КАСБИЙ МАҲОРАТИ ВА КОМПЕТЕНТЛИГИ МОДУЛИ// Касбий қайта тайёрлаш йўналиши тингловчилари учун Ў Қ У В – У С Л У Б И Й М А Ж М У А// Низомий номидаги ТДПУ Тошкент 2018 йил. 191 бет. 44-45 бетлар



Pedagogik madaniyat - tarbiyachilik burchi, mas'uliyati, qadr-qimmatini, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, pedagogning talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo'yligi, to'g'riligini anglatadi.

Pedagogik mahorat tizimida **pedagogik nazokat (takt)** pedagogning pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'lchovi, me'yor va ta'sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari pedagogning kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi va tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo o'z kasbining mohir ustoz bo'lish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o'ylash, pedagogik ish tutish lozim bo'ladi. Bu deganimiz, o'z faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog'lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta'lim-tarbiyaga doir g'oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo'ladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng qulay yo'llarini topish ustida o'ylash ham kerak.

Insonparvarlik – insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to'g'risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Pedagoglarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish; oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'z g'alalar muvoffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik.

Samimiylilik - atrofdagi kishilar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik ifodalanadigan shaxsiy sifat.

Vatanni sevish - ona yurtiga, ota-onasiga va yoru do'stlariga sadoqatli bo'lish va e'tiqod qilish; mustaqil respublikamiz konstitutsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzlari, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

Fidoyilik – tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, otabobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish.

Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb etsa-da, ular yaxlit holda tarbiyachi (pedagog)ning kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi. Zero, **pedagogik texnika** – o'qitish, ta'sir ko'rsatish, ta'lim tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini o'zlashtirish texnologiyasini ifodalasa,



pedagogik muomala – kasbiy faolligining bir ko‘rinishi bo‘lib, ta‘lim-tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o‘zaro ta‘sir va hamkorligini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ubayevna, R. X. (2023). BATAREYKALAR VA ULARNING BOLA HAYOTIDAGI SALBIY TA‘SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 7(1), 83-88.
2. Ризаева, Х. У., & Искандаров, Н. Р. (2023). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА МЕЎНАТ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 7(1), 89-98.
3. Rizayeva, X. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDA GI BOLALARDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA MAHALLANING ROLI. *Science and innovation*, 1(B8), 2165-2168.
4. Rizayeva, X. U. (2022). МАКТАБГАЧА ТА‘ЛИМ TASHKILOTLARINING KUNDALIK TA‘LIMIY FAOLIYATI DAVOMIDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI BOLA ONGIGA SINGDIRILISH DARAJASI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 129-134.
5. Расулхожаева, М. А. (2012). Роль воспитателей в формировании нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста посредством знакомства с животным миром. *Молодой ученый*, (7), 314-316.
6. Расулходжаева, М. А. (2022). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ. *Национальная ассоциация ученых*, (80), 30-32.
7. Rasulkhujayeva, M. A. (2019). Educator’s Role in Forming Moral Qualities Senior Preschool Age Children by Introducing Animal World. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
8. Ширбачеева, Г. Ш. (2020). Качество работы дошкольной образовательной организации зависит от руководителя. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (2), 46-51.
9. Ширбачеева, Г. Ш. (2021). УПРАВЛЕНЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ РУКОВОДИТЕЛЯ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СФЕРЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ НАЧИНАЮЩИХ ПЕДАГОГОВ. In *Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст* (pp. 303-308).
10. Ширбачеева, Г. Ш. (2019). К проблеме качества образования в дошкольном учреждении. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 33-39).
11. Ширбачеева, Г. Ш., & Халилова, Г. В. (2020). Педагогическое мастерство воспитателя. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (5), 74-79.
12. Ширбачеева, Г. Ш. (2019). Роль руководителя в адаптации новых сотрудников дошкольного образовательного учреждения. In *Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации* (pp. 88-89).